

**BIOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840219>

**Otajonova Inobat Ro'zimovna**

*Toshkent viloyati Qibray tumani 13-maktab biologiya fani o'qituvchisi*  
[atabayeva1982@mail.ru](mailto:atabayeva1982@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinflarida o'qitiladigan biologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan usullari va ulardan foydalanishning ahamiyati to'g'risida yozilgan. Darslikdagi mavzularni yangi pedagogik texnologiyalardan faoydalanib, o'qitishning o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichiga ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, tabiat, ekologiya, ekosistema, texnologiya, tabiiy ekosistema, sun'iy ekosistemalar, biolmlar, chuchuk suv ekosistemi, dengiz ekosistemi, o'rmon ekosistemalari, tropik o'rmon.

**KIRISH.** "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim o'quvchilarni o'quv fanlari bo'yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ta'lim- tarbiya ishlarining samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish ko'rsatilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchilar zimmasiga yuklanadi [2].

Xar bir shaxs hayotini, tirik tabiat to'g'risidagi ilmiy bilimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki uning hayoti o'simliklar va hayvonot olami bilan butkul bog'langan, Lekin o'simliklar - Yerda organik xom ashyo va energiya olish manbavdir. Hayvonot dunyosi o'z navbagida turli xil oziq ovqat va sanoat xom ashyosining manbai bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy boyliklardan mohirona foydalanish va ularni ko'paytirish xalq va davlat farovonligini yuqoriga ko'tarish uchun xizmat kiladi, to'g'ri yo'lga qo'yilgan biologik ta'lim, ilmiy dunyoqarashni tarbiyalashga imkon beradi. O'quvchilar, biologik ta'lim olaturib, tabiat faktlari va hodisalarini o'zaro bog'lanishda, xarakter, o'zgarish va rivojlanish holatida tushunishga o'rganadilar [4].

Globalashuv davrida ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalar kirib kelmoqda. Bu o'z navbatida o'qitishning zamonaviy, axborotlashtirilgan yo'nalishini yaratishni taqazo etmoqda. Yangi, zamon talablariga mos axborotlashtirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanib, dars jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



## Taklif Va Tavsiyalar

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi biologiya fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'tish ta'lim samaradorligining ortishiga yordam beradi. Dars jarayonida o'zi bevosita ishtirok etsa, ko'rgan, eshitgan dars jarayonini esda saqlab qolishi osson bo'ladi. Quyida 11-sinf darsligidagi Tabiiy ekosistemalar mavzusini o'tish metodikasi keltirilgan.

### O'qitish Metodikasi

#### MAVZU: Tabiiy Ekosistemalar

Darsning maqsadi; O'quvchilarga tabiiy ekosistemalar haqida bilimlarni va ularning turlari haqida umumiy tavsifi bilan tanishtirish.

Darsning vazifasi: o'quvchilarga tabiiy ekosistemalar, quruqlik ekosistemalar, tundra, ignabargli o'rmon, mo'tadil iqlim mintaqasining keng bargli o'rmonlar, dashtlar, o'tloqlar, sahrolar, tropik o'rmonlar, chuchuk suv ekosistemalari, dengiz ekosistemalari haqida tushunchalar berish orqali, o'quvchilarga ona tabiatga muhabbat tuyg'usini shakillantirish.

Darsga kerakli jihozlar: XI-sinf Biologiya darsligi, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, kompyuter.

Darsda qo'llaniladigan metod: faol ma'ruza, guruhlar bilan ishlash

#### DARSNING BORISHI

##### I. Darsning tashkil etilishi ( 2 daqiqa )

1. salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirligini ko'rib chiqish.
2. o'quvchilarni guruhlariga bo'lish .

#### Yangi Mavzu Yuzasidan Va Uyga Berilgan Vazifani So'Rash (10 Daqiqa )

O'quvchilar tanlangan 4 ta guruhga bo'linib joylariga o'tirishadi.

1-guruh. Tundra, 2-guruh. Tayga, 3. Guruh. Dasht, 4-guruh. Sahro

O'qituvchi tomonidan oldingdan tayyorlab qo'yilgan savol va topshiriqlarni guruhlar boshlig'i chiqib tanlab oladilar. "O'zing bajar" bu shartda o'quvchilar berilgan topshiriqlarni mustaqil bajaradilar.

**1-guruhga.** Tabiiy ekosistemalar quruqlik ekosistemalari tundra, igna bargli o'rmon haqida ma'lumot bering.

**2-guruhga.** Mo'tadil iqlimli mintaqalarning keng bargli o'rmonlari, dashtlar haqida ma'lumot bering

**3-guruh.** O'tloqlar, sahrolar, tropik o'rmonlar haqida ma'lumot bering

**4-guruh.** Chuchuk suv ekosistemalari, dengiz ekosistemalari haqida ma'lumot bering

Guruhlar taqdimoti (10 daqiqa)

#### YANGI MAVZUNI BAYONI

#### O'qituvchining kichik ma'ruzasi (10 daqiqa)

#### REJA

1. Quruqlik ekosistemalari.



2. Chuchuk suv ekosistemalari.

3. Dengiz ekosistemalari.

Yangi mavzu boshlashdan oldin o'quvchilarga tabiiy ekosistemalar aks etgan rasmlari tarqatilib ular haqida umumiy ma'lumotlar so'raldi.

1. Ekosistemalar qanday qismlardan tashkil topadi.

2. Ekotizmlardagi qanday organizmlar produtsent, konsumentlar va redutsentlar qeyiladi?

Sayyoramizdagi ekosistemalar juda xilma-xil. Kelib chiqishiga ko'ra ekosistemalarning quyidagi xillari farqlanadi. 1. Tabiiy ekosistemalar - bu turdagi ekosistemalarda biologik o'zgarishlar insonning bevosita ishtirokisiz boradi. 2. Sun'iy ekosistemalar, inson tomonidan yaratilgan va inson ko'magida faoliyat yurita oladigan ekosistemalar.



1. 2.

1-rasm. Tabiiy ekositemalar. 1-ignabargli o'rmon (tayga), 2-dash.

**MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (7 DAQIQA)**

1. Quruqlik ekosistemalarining Yer yuzida joylashuvini abiotik omil - va --- miqdori belgilaydi.

A. Harorat, yog'in B. Namlik, yorug'lik C. Harorat, yorug'lik.

2. Bir xil iqlim mintaqalarida joylashgan ekosistemalar yig'indisi - deb ataladi

A. Tabiiy ekosistemalar B. Biomlar C. Suniy ekosistemalar

3. Berilganlar ichida tundraga mos keladiganini toping?

A	B	C




4. O'simliklardan paxta, kedr, qarag'ay, yirik tuyoqli hayvonlardan los, kabarga mayda o'simlikxo'r hayvonlardan qunduz, olmaxon uchraydi. Bu ta'rif qaysi biomga tegishli?

A. Tayga B. Tundra C. O'tloqlar

5. o'simliklari asosan o'tlardan iborat ekosistemalar bo'lib, pasttekisliklar, daryo qirg'oqlaridagi yerlarni egallab, o'simliklardan asosan boshhoqli va gulli o'simliklar o'sadi .

A. Dashtlar B. O'tloqlar C. Sahro.

6. Quyidagi berilganlar ichida dashtga mos keladiganini toping.



**Guruhlar taqdimoti (10 daqiqa )**

**O'quvchilarni rag'batlantirish va baholash (2 daqiqa )**

Dars yakuniga guruh o'quvchilari to'plagan ballariga qarab rag'batlantiriladi.

**UYGA TOPSHIRIQ ( 2-DAQIQA ).**

*Izoh:* O'qituvchi uyga vazifani slayd orqali ko'rsatadi va o'quvchilar yozib oladilar  
Quyidagi rasmda berilganlar qaysi biomlarga tegishli ekanligini toping va ularga ta'rif bering.





### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuldiyrov X.A. Biologiya o'qitish uslubiyati. T.: SAMDU nashri.- 2020. 120 b.
2. Tolipova J.A., A.T. G'ofurov Biologiya o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya». -2007. 236 b.
3. Tolipova J.A., G'ofurov A.T Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2011.160 b.
4. G'ofurov A.T, Ж., Tolipova J.A., Fayzullayev S.S, Azimov I, Biologiya o'qitish metodikasi. Toshkent. " Nizomiy nomidagi TDPU". 2005.-77b